


Namangan viloyati statistika boshqarmasi


2018 yil yanvar-avgust oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 1130,4 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 62,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,6 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 545,6 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,0 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 522,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,3 foizni tashkil etdi.



2018 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati % da




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Chortoq tumanida (75,1 mlrd.so'm yoki 145,6 %) - Chortoq tumani hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylarni qurish ishlari bajarilgan;
- Norin tumanida (76,5mlrd.so'm yoki 137.3 %)- Norin tumani hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;
- Mingbuloq tumanida (39,6 mlrd.so'm yoki 123,7 %)- Mingbuloq tumani hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Yangiqo'rg'on tumanida (80,5 mlrd.so'm 65,2%)- qayd etildi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 19,5 % ini tashkil etdi, Namangan tumanida 10,6 % ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,3 % ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 4,7 % ni, Chust tumanida ushbu ko`rsatkich 6,3 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Mulkchilik shakllari


Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1064,2 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94.1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 foiz punktga kamaydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.